

“O‘ZBEKISTON -2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA AHOLI BANDLIGIGA OID MASALALAR RAQAMLARDA

*Bultakova Sadoqat
SamISI doktoranti*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabridagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish borasida topshiriq berilgan. Unda:

-o‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta’lim, tibbiyat, yuridik, san’at, turizm, mehmonxona va umumiyl ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish;

-shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarining 233 mingta bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish;

-o‘rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan ko‘chalarini tashkil etish orqali 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish;

-“Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida 6 mingta savdo va servis obyektlarini qurish;

-yetakchi loyiha tashkilotlarini jalg qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish kabi masalalarga alohida to`htalgan va bu boradagi ishlarni amalga oshirish ko`zda tutilgan.[1]

Qayd etilishicha, mamlakatda 2023-yil yakuniga ko‘ra ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. 2023-yilning dekabr oyida vazirlik huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tomonidan respublikaning 208 ta shahar va tumanida navbatdagi ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida o‘tkazilgan tadqiqot davomida 1 000 ta o‘zini o‘zi boshqarish organlari, 10 000 uy xo‘jaliklari hamda 53 ming 300 nafar fuqaro qamrab olindi.

2024 yilning 1-yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19 million 724 ming 900 kishini tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foizga) oshgan.O‘zbekistonda 2023-yil sarhisobiga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 14,1 foizdan 11 foizgacha pasaygandi. Aholi bandlik darajasini oshirish, ishsizlikni hal etish masalalari kambag‘allikni qisqartirishning ta’sir omillaridir.[2]

O‘zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini yaxshilash o‘z - o‘zidan aholi bandligi va mablag‘ darajasiga bog‘liq bo‘lganligi sababli ushbu masalalarni ijobiy tarafga hal qilish maqsadida ko‘plab dasturlar, loyihalar ishlab chiqildi. Aholi uchun o‘z biznesini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lganlar uchun imtiyozli kreditlar berilishi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu islohotlar aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgani bois bandlikni taminlash va shu orqali yashash sharoitini yaxshi tomonga o‘zgartirish asosiy maqsad

qilib qo‘yildi. Rivojlangan davlat bo‘lmish Xitoyga nazar tashlasak, u yerda har bir oila tadbirkor va eksport salohiyati juda kuchli, butun dunyoni Xitoy bozori egallagan, bu borada bizda ham shuni qo‘llash juda katta natijaga olib boradi.

Raqamlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2023 yil hisobiga ko‘ra sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasida aholining ish bilan bandligi 2 millionga oshgani, 4 milliondan ziyod aholi mavsumiy ishga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Yangi korxonalarning bunyod etilishi natijasida birinchidan eksport ko‘lamin oshishiga, ikkinchi tomondan esa yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi va aholining bandlik masalasini ijobiy hal qilishga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar sababli, hududlarda korxonalar 85 mingtaga ortgan va jami korxonalar soni 550 mingtaga yetgan. 2022 yilda daromad solig‘i to‘layotgan rasmiy band bo‘lganlar soni 400 mingtaga oshgani va 5 million 100 mingtani tashkil etganini ko‘rish mumkin. Bu esa albatta katta natija hisoblanadi.

Yildan-yilga mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat, qurilish, xizmatlar sohasi o‘tgan yilga nisbatan o‘sib borayotganini katta natija hisoblanib, quyidagi jadvalda ko‘rsatkichlar 2022 yilga nisbatan 2023 yida foizda va so‘mda o’sganini ko‘rish mumkin.[3]

1-jadval

Ko‘rsatkichlarning o‘sish dinamikasi

Mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmi	9,4%	28,98 million so‘m
Sanoat sohasi	6%	655,8 trillion so‘m
Qurilish sohasi	6,4%	149,86 trillion so‘m
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining hajmi	4,1%	426,3 trillion so‘m
Xizmatlar sohasi	6,8%	470,3 trillion so‘m

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. <https://www.stat.uz/>

Normativ-huquqiy hujjatlar aholi qatlami bandligini ta’minlash va shu bo‘yicha bandlikni ta’minlash xizmatlaridan foydalanish, uning tezligi va sifatini oshirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Raqamlarda o‘zgarish aholining hayotiy talab va xohishlariga javob bera oladigan maosh va yuqori ish o‘rinlari yaratilish, kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushganini ko‘rish mumkin.

Shuni o‘z o‘rnida ta’kidlab o‘tish joizki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida kambag‘allikni 2022 yilga nisbatan 2026 yida 2 barobargacha, 2030 yilgacha keskin darajada qisqartirish va shu asnosida 4,5 million aholi daromadlarini oshirish yuzasidan maqsad qo‘yilgan.[4]

Ihsizlik darajasini 7 foizga tushirish va mehnatga layoqatli bo‘lgan aholini, shulardan nogironligi bor bo‘lgan va yoshlarni bandligini ta’minlash, xorijiy tillarni o‘rgatish, tadbirkorlik bilimlarini berish, kasb-hunarga o‘rgatish orqali 2 million aholini

ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Shularni inobatga olib, kasbga o'qitish markazlari xodimlarining 1,6% nafarini malakasini oshirish va xususiy sektor ulushini 30 foizga oshirish reja qilingan.

Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtida O'zbekistonda ishsiz aholi 1 million 300 mingtani tashkil etadi. Mehnat bozoriga kirib keladigan yoshlar soni esa 2 million 400 mingtani tashkil etishi kutilmoqda. Bu raqamlarni hisobga olgan holda, 5 million aholi bandligini ta'minlash reja qilingan.

Shulardan xizmatlar sohasi uchun 2,5 million, qishloq xo'jaligi uchun 2,1 million, sanoat va investitsiya sohasida 250 ming, qurilish sohasida esa 140 mingta ish o'rnini yaratish imkonи mavjud. Bulardan tashqari aholini tadbirkorlik borasida qo'llash orqali ham qo'shimcha ish o'rnlari va o'z-o'zini band qilish faoliyatiga va mikromoliyalash tizimi orqali esa 2 million aholini ish bilan ta'minlashga erishish mumkin.

Ushbu masalalar yuzasidan o'zini-o'zi band qilganlarning 2 million 400 mingtasini faoliyatini kengaytirish, ularga yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar bergan holda kichik biznesga o'tkazish va ishlab chiqarilgan mahsuloti uchun bozor topishga yordamlashish maqsadida "Mening biznesim" elektron platformasi va biznesini yo'lga qo'ymoqchi bo'lganlar uchun "Biznesga birinchi qadam" miqroqarz olish imkoniyatlari yaratildi.

Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlikni rivoji asosiy o'rindadir. Shu sababli tadbirkorlar va aholiga xizmat ko'rsatishda davlat xizmatlari 30 ga yaqin litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Davlat xizmatlarining 70 dan ortig'i soddalashtirildi va 60 dan ortiq hujjatlar so'ralishiga chek qo'yildi.[5] Shu bilan birga, "Agregator" tizimi asosida "100 ming eksportchi dehqon" dasturi joriy qilindi. Bunga asosan 2024-yilda 15 ming hektar yer maydonlari auksionga chiqariladi va bu ishsiz aholini ish bilan ta'minlashga, yangi ish o'rnlarini ochilishiga, tadbirkorlikka bo'lgan qadamlar bo'ladi, bu esa ma'lumki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarni amalda qo'llash orqali aholi turmush darajasini yaxshilash, ishsizlik darajasini kamaytirish, yashash darajasini yaxshilash va asosiysi iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim yo'l hisoblanadi.

Hududlarda ishsizlikni kamaytirish va aholini ish bilan ta'minlash borasida quyidagilarni amalda qo'llash zarur hisoblanadi:

1. Mahalla bilan ishslash tizimiga yondashish: ya'ni aholi o'rtasida savodxonlikni oshirish, mikroqarzlar haqida ma'lumot berish;
2. Shahar, tuman, qishloqda qaysi xizmat ko'rsatish sohasiga ko'proq talab borligini aniqlab aholiga ushbu taklifni aytish;
3. Aholini kasbga o'qitish, "Ishga marxamat" monomarkazlari(KOICA), xorijiy tillarga o'qitish, professional kasblar, tadbirkorlik, moliyaviy savodxonlik kabilarga o'qitish, tayyorlash bo'yicha yo'l-yo'riq, ko'rsatmalar berish;
4. Bo'sh ish o'rnlari to'g'risida ishsiz aholi qatlamiga tez tez yangilangan va kerakli kadrlarni topishda mahalla yordami va aralashuvni;
5. Maishiy xizmat turlariga bo'lgan talabni o'rgangan holda ushbu xizmat turlarini ko'paytirish;

6. Aholiga tadbirkorlik uchun ajratilgan mikroqarz, kreditlar haqida aholiga bank hodimlari tomonidan ma'lumot berish;
7. Tadbirkorlik, o'zini-o'zi band qilish, uy mehnati, kasanachilik kabi faoliyat turlarini rivojlantirish;
8. Pillachilikni rivojlantirishga ahamiyat qaratgan holda qishloq joylarida pilla yetishtirish orqali aholi qatlamini band qilish;
9. Qishloq hududlarida yetishtiriladigan bog'dorchilik, poliz, quruq mevalar eksportini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadbirkorlar va aholiga to'g'ri yo'nalish berish va yo'l-yo'riqlarini o'rgatish;
10. Online ishslash yo'nalishini yo'lga qo'yish (uyda o'tirgan yosh bolali ayollar, nogironlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida);
11. Rivojlangan davlatlar mehnat bozori va aholini ish bilan ta'minlash tizimini o'rghanish va maqbulini O'zbekistonda qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotgar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'risidagi PF-158-sonli Farmoni <https://www.lex.uz/>
2. Mehnat bozori tadqiqotlari instituti ma'lumotlari asosida <https://orginfo.uz/organization/93d99a031fda/>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. <https://www.stat.uz/>
4. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi rasmiy sayti: <https://parliament.gov.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 9 yanvardagi PF-8-sonli "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6748097>.

HUDUDLARDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH VA MIGRATSIYANI TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI

Fazliddinova Zulkumor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Ishsizlik darajasini pasaytirish va migratsiyani tartibga solish murakkab, o'zaro bog'liq muammolar bo'lib, dunyoning ko'plab mintaqalari, jumladan, O'zbekiston ham duch kelmoqda. Ko'pincha ishsizlar ish beruvchilar talab qiladigan ko'nikmalarga ega emaslar. Buni hal qilish uchun mintaqaviy mehnat bozorlariga moslashtirilgan malaka oshirish va qayta malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish va ta'lim o'quv dasturlarini sanoat ehtiyojlariga moslashtirish lozim. Bundan tashqari ish o'rinnari yaratilmasligi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning yechimi sifatida ish o'rinnarini yaratish salohiyati yuqori bo'lgan tarmoqlarga investitsiyalarini jalb qilish samaraliroq natijalarga olib keladi.